



Mahmud Murodov 1916-yili Toshkentda tugʻilgan. Kichik-kichik hikoya va lavhalari bilan jurnallarda faol qatnashadi. 1955-yildan “Gulxan” jurnalida mas’ul kotib, 1958-yildan umrining oxirigacha “Gʻuncha” jurnalida mas’ul kotib lavozimida bolalar adabiyotining ravnaqiga xizmat qilgan.



Har bir soʻzni qatnashtirib, 4 ta gapdan iborat matn tuzing.

kapalak

kamalak

sumalak

chagʻalay





Kapalak

Mahmud Murodov

Bahromjonning tili biyron chiqqan bo'lsa ham, hali ko'p narsalarning nomini bilmasdi. Bir kuni u yugurib uyga kirdi-da, Bahodir akasining qo'lidan tortqilay boshladi. Menga ham yopishib: "Yuringlar, kattakon kapalak", – dedi.

Hovliga chiqdik. Yo'lakda bir chumchuq bolasi yotardi. Inidan tushib ketibdi. Og'zini kappa-kappa ochadi. Olib qarasam, bir oyog'i singan. Bahodir ikkimiz "vrachlik" qildik. Qushchaning singan oyog'iga qog'oz o'rab, ip bilan yaxshilab bog'lab qo'ydik. Go'yo taxtakachladik. Iniga qo'yaylik desak, bo'g'otning ichiga qo'l sig'maydi. O'z aqli bilan kirib ham ketmaydi. Tag'in mushukka yem bo'lmasin, deb botinka qutisiga solib, uy tokchasiga qo'ydik. Bahodir pashsha tutib berdi. Bahromjon non uvoq bilan mehmon qilib turdi. Qushcha kundan kun o'sib, qutichadan chiqib, uy aylanadigan bo'lib qoldi. Ba'zan ona chumchuqning ovozini eshitib, chirqillab qo'yadi. Bahromjon esa kapalak gapiryapti, deb sevinchi ichiga sig'maydi. Buni eshitgan akasi "Kapalak emas, chumchuq", – deb qo'yadi.

Bir kuni oyog'ini yechsak, yarasi bitibdi. Ikki-uch kundan keyin esa pirillab uchadigan, o'zini derazaga uradigan, tinimsiz chirqillaydigan bo'lib qoldi.

– Uchirib yuboramizmi chumchuqni? – deb so‘radi Bahodir ukasidan.

Bahodirjon ko‘nmadi:

– Kerakmas, kerakmas! Chumchuqni uchirmayman, – deb turib oldi.

Men, ular qanday to‘xtamga kelishar ekan, deb indamay turdim. Bahodir biroz turgach, so‘z boshladi:

– Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog‘i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog‘i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi. Bola esa erta-yu kech yig‘layveribdi.

Shu yerga kelganda Bahodir biroz to‘xtadi-da, so‘ng so‘radi:

– Bilasanmi, nega yig‘lagan?

– Uyiga yuborishmagani uchun yig‘lagan.

Adasini, oyisini sog‘ingan, – deya javob berdi Bahromjon.

– Topding, – dedi Bahodir. – Biz



vrach bo'ldik. Chumchuqning oyog'ini tuzatdik. Endi u dadasi bilan onasini sog'inib yig'layapti. Uni ushlab o'tiraveramizmi?

Bahromjon biroz ikkilanib turdi-da:

– Qo'yib yuboramiz, – dedi.

Chumchuq bolasi derazadan chiqib, gilos shoxiga qo'ndi, so'ng pastga qarab bir-ikki chirqilladi-da, uchib ketdi.

– Chumchuq nima dedi? – so'radi Bahromjon.

– “Bahromjon akamga rahmat!” deb aytdi, – dedi akasi. Bahromjon irg'ishlab qichqirdi.

– Rahmat! Rahmat!



1. Hikoya nima uchun “Kapalak” deb nomlangan?
2. Aka-ukalar nega chumchuqni uyga olib keldilar?
3. Bahromjon nima uchun xarxasha qilar edi?
4. Bahodir qanday qilib Bahromjonga to'g'ri yo'l ko'rsatdi?
5. Hikoya qanday insoniy fazilatlar haqida deb o'ylaysiz?



bo'g'ot – qamish solib yopilgan tomning devordan tashqariga chiqib turgan qismi
taxtakachlamoc – singan a'zo suyaklarini taxtakach orasiga olib, siqib bog'lab qo'ymoq



Hikoya qahramonlarini ta'riflang.
Hikoyani rollarga bo'lib o'qing.
Hikoyadan Bahromjonning o'z xatosini tushungan joyini topib o'qing.
Rasmlarni ifodalovchi gaplar bilan hikoyani qayta so'zlab bering.



Hikoyani so'zlab berishga tayyorlaning.
Hikoya mazmunini ifodalovchi rasm chizing.